

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



BuxDU rektori
O.X.Xamidov

2022yil 30.08.

TABIYY GYEOGRAFIYANING ASOSIY MUAMMOLARI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000	- Gumanitar soha
Ta'lif sohasi:	140000	- Tabiiy fanlar
Ta'lif yo'nalishi:	5140600	- Geografiya

Buxoro-2022

Fan dasturi Buxoro Davlat universiteti ilmiy kengashning 2022 yil “30” avgustdagi “1” - son majlisi bayoni bilan ma’qullangan va o‘quv jarayoniga qo’llash uchun tavsiya etilgan.

Fan dasturi Buxoro Davlat universitetida ishlab chiqildi.

TUZUVChI:

Anvarova Z.M. Ekologiya va geografiya kafedrasи o‘qituvchisi.

TAQRIZChI:

Toshov X. R. Ekologiya va geografiya kafedrasи dotsenti

O‘quv dasturi ”Ekologiya va geografiya“ kafedrasи majlisi (Kafedra majlisining № 1-sonli bayonnomasi 26 avgust 2022 y.) hamda Tabiiy fanlar fakulteti ilmiy kengashida muhokama qilingan (fakultet ilmiy kengashining № 1-sonli bayonnomasi 29 avgust 2022 y.) va tavsiya etilgan.

Tabiiy fanlar
fakulteti dekani:
2022 yil “29” avgust



E.D.Niyozov

“Ekologiya va geografiya”
kafedrasи mudiri:
2022 yil “26” avgust

 Yo.D.Xolov

Kirish

Geografiyaning asosiy muammolari o‘quv kursi o‘quv jarayonida tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga doir bilimlarni umumlashtirish, mazkur fanning dolzarb muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo‘llari bo‘yicha bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. U hozirgi tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografik fanlari bilan chambarchas bog‘liq holda geografiya fakultetlarining yuqori kurs talabalariga o‘qitiladi va yuqori malakali geograflar tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

O‘quv kursini o‘qitishdan maqsad - talabalarda tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning zamonaviy tuzilishi, tadqiqot ob’ekti va predmeti, ichki rivojlanish qonuniyatları, o‘rtा va oliy maktabda o‘qitilishi muammolari, amaliy jihatlari va ahamiyatiga doir bilim va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi talabalarda - tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning shakllanishi, tadqiqot ob’ekti va predmeti, o‘zaro aloqadorligi va rivojlanishi muammolarini aniqlash; tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirish va ushbu fan oldida turgan vazifalar, dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha bilimlarni hosil qilishdan iborat.

Fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakaga qo‘yiladigan talablar

“Geografiyaning asosiy muammolari” o‘quv kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- tabiiy va iqtisodiy geografiyaning tadqiqot ob’ekti va predmeti, tadqiqot usullari; tabiiy va iqtisodiy geografiyaning ichki tuzilishi; tabiiy hamda iqtisodiy geografiyaning o‘zaro aloqadorligi va rivojlanish qonuniyatları, asosiy termin va tushunchalari; tabiiy va iqtisodiy geografiyadagi asosiy g‘oya va tushunchalar haqida *tasavvurga ega bo‘lishi kerak*;

- tabiiy va iqtisodiy geografiya doirasida ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishni va bajarishni; tabiiy geografiyaning fanlar tizimidagi o‘rni va tarkibini; umumiyligi va regional tabiiy geografiyaning asosiy muammolarini; landshaftshunoslikka taalluqli muammoli masalalarini; inson - tabiat munosabatlarning va uning oqibatlarini *bilishi va ulardan foydalana olishi kerak*;

- turli tabiiy geografik rayonlashtirish sxemalarini tahlil qilish asosida tabiiy geografik komplekslarni aniqlash; geografik qobiqni kompleks tavsiflash; qishloq ho‘jaligi va boshqa soha maqsadlarida bajariladigan tabiiy geografik rayonlashtirish ishlarini amalga oshirish; tabiiy geografik monitoring va bashoratlash ishlarini olib borish; tabiiy geografik xususiyatlari aniqlay olish va ularni bartaraf etish; tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni aniqlay olish va ularni bartaraf etish; tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning o‘zaro aloqadorligi va rivojlanishi, ularning o‘qitilishi hamda amaliy ahamiyatiga doir muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha xulosalar chiqara olish *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak*.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatidan uzviy ketma-ketligi

“Geografiyaning asosiy muammolari” o‘quv kursi asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 7-8 semestrda o‘qitiladi. Talaba fanni mukammal o‘rganish uchun geografik va tabiiy-ilmiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak.

Dasturni amalga oshirish uchun Geografiya yo‘nalishining o‘quv rejasidan o‘rin olgan matematik va tabiiy-ilmiy (oliy matematika, informatika va axborot texnologiyalar, statistika, ekologiya asoslari), umumkasbiy (umumiyligi Yer bilimi, landshaftshunoslik, jahon geografiyasi, O‘zbekiston geografiyasi, tabiatdan foydalanishning geografik asoslari, iqtisodiy va ijtimoiy

geografiya, hududiy majmualarning nazariy asoslari, aholi geografiyasi, shaharlar geografiyasi) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Bo'lajak geograf bakalavrлari o'zlarining ishlab chiqarish faoliyatida, jumladan mакtab, kollej va litseylarda o'quvchilarga dars berish jarayonida, turli ilmiy tadqiqot ishlarida dala-kuzatuv hamda o'lhash ishlarini tashkil etishlarida, ulardan xo'jalikning turli sohalarida samarali foydalanishda ushbu fan bo'yicha, ya'ni tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning o'zaro aloqadorligi va rivojlanishi muammolari, ilmiy-amaliy ahamiyati haqida olgan nazariy va amaliy bilimlariga tayanadilar. Shu jihatdan "Geografiyaning asosiy muammolari" o'quv kursi yuqori malakali geograflar tayyorlash tizimining ajralmas bo'g'ini hisoblanadi.

Fanni o'qitishda zamонавиъ ахборот ва педагогик тарнологиялар

Talabalarni geografiyaning asosiy muammolari o'quv kursini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamонавиъ usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, kartografik va statistik ma'lumotlardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy darslarda mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Asosiy qism Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

I qism. Tabiiy geografiyaning asosiy muammolari

Tabiiy geografiyaning asosiy muammolari o'quv kursi ob'ekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. O'quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog'liqligi. Tabiiy geografik izlanishlarning tavsisi.

Tabiiy geografiyadagi asosiy g'oya va tushunchalarning shakllanish va rivojlanish tarixi

Qadimgi (antik) davrlardagi yunon olimlari Gekatiy, Gerodot, Aristotel, Eratosfen, Gipparx, Posidoni, Strabon, Ptolemeylarning geografik tasavvurlari. O'rta asrlardagi sharq uyg'onish davri geografiyasi. O'rta Osiyolik allomalar Muhammad Xorazmiy, Jayhoni, Balxiy, Abu Abdulla Xorazmiy, Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Zamashshariy, Hofizi Abru, G'iyosiddin Naqqosh, Zahiriddin Bobur va boshqalarning geografik merosi.

Buyuk geografik kashfiyotlar davri va yevropaliklarning tasviriy geografiyasi. Bernxard Vareniusning "buyuk" geografiyasi (Umumiy geografiya asari).

XIX asrda yangi geografiyaning shakllanishi. I. Kant, A. Gumboldt, K. Ritterlarning geografik qarashlari.

V.V. Dokuchayev, A.N. Krasnov, G.T. Tanfilev, L.S. Berg, G.F. Morozov, A.A. Grigorevlarning yangi ilmiy geografiyaning shakllanishidagi roli.

XX asrning ikkinchi yarmida kompleks tabiiy geografiya va landshaftshunoslik g'oyalarining rivojlanishi. O'zbekistonda bajarilgan tabiiy geografik izlanishlarning tavsisi.

Tabiiy geografiyaning fanlar tizimidagi o'rni va qismlari

Tabiiy geografiyaning obekti, predmeti va vazifalari. Geografik qobiq, geografik muhit, tabiiy geografik kompleks, landshaft, geografik tizim, tushunchalari va ta'limotlarining shakllanishi. Geotizimlarning uch darajasi: planetar, regional va topologik darajalari.

Tabiiy geografik komplekslarning ko‘lamlari, katta-kichikligi va tabiiy geografiyaning qismlarga bo‘linishi. Umumiy tabiiy geografiya, regional tabiiy geografiya, landshaftshunoslik.

Umumiy tabiiy geografiyaning asosiy muammolari

Geografik qobiqning chegaralari va tarkibiy tuzilishi. Uning geosferalari va komponentlari. Geografik qobiqning o‘ziga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlari. Uning tarixan shakllangan, uzlusiz rivojlanib turadigan, o‘ziga xos va murakkab moddiy tizim ekanligi. Geografik qobiqning tashqi olam bilan aloqadorligi. Unda organik hayotning mavjudligi. Geografik qobiqning mavjudligida tirik moddaning ahamiyati. Geografik qobiqdagi hududiy farqlarni aniqlash va muayyan hududlarning tabiiy sharoitini tadqiq qilish katta hududlar (regional) tabiiy geografiyasining eng muhim vazifalardan biri ekanligi.

Regional tabiiy geografiyaga taaluqli muammolar

Tabiiy geografik komplekslar va ularning umumiy xususiyatlari. Tabiiy geografik rayonlashtirish regional tabiiy geografiyaning metodologik masalalaridan biri ekanligi.

Tabiiy geografik rayonlashtirishning xillari, prinsiplari va metodlari. Genetik birlilik, komplekslilik, hududiy umumiylig va nisbatan bir xillik prinsiplari.

Xususiy rayonlashtirish ma’lumotlarini tahlil qilish asosida tabiiy geografik rayonlashtirish metodi. Tabiiy geografik rayonlashtirishning yetakchi (bosh) omil metodi. Landshaft tipologik kartani tahlili qilish asosida tabiiy geografik rayonlashtirish metodi.

Tabiiy geografik rayonlashtirishning taksonomik birliklar tizimi. Bir qatorlik, ikki qatorlik va ko‘p qatorlik sxemalar. Taksonomik birliklarning umumiy ta’rif.

O’rta Osiyo va O’zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirishlar tajribalaridan R.I.Abolin, L.S.Berg, Ye.P.Korovin, A.N.Rozanov, V.M.Chetirkin, E.M.Murzayev, L.N.Babushkin va N.A.Kogaylarning tabiiy geografik rayonlashtirish ishlarida ko‘tarilgan muammoli masalalar. Qishloq ho‘jaligi va boshqa soha maqsadlarida bajariladigan tabiiy geografik rayonlashtirish masalalari.

Landshaftshunoslik yoki kichik hududlar tabiiy geografiyasining muammoli masalalari

Landshaft tushunchasining shakllanish va munozarali tomonlari. Landshaftning tarkibiy tuzilishi va morfologiyasi. Landshaft hosil qiluvchi omillar muammosi. Landshaft va ekosistema, landshaftshunoslik va ekologiyadagi o‘xshashlik va farqlar. Landshaft ekologiyasi yoki geoekologiya tushunchasi. Landshaftlarning maxsus faoliyati. Landshaftlarni tasniflash masalalari. Landshaftshunoslikdagi asosiy ilmiy yo‘nalishlar: strukturaviy-genetik, funksional-dinamik, antropogen, ekologik, estetik va boshqalar.

Inson-tabiat o‘zaro aloqadorligi masalalari

Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning tabiiy geografik jihatlari. Tabiatdan oqilona foydalanishning global, regional va mahalliy ko‘lamdagи muammolari. Tabiy geografik monitoring va prognozlash. Tabiiy geografik baholash masalalari.

O’rta Osiyo va O’zbekiston tabiiy geografiyasiga taaluqli muammoli masalalar. Orol va Orolbo‘yi muammosi va unga bog‘liq bo‘lgan ekologik masalalar. Antropogen cho‘llanish muammolari. Iqlim o‘zgarishiga bog‘liq holda landshaftlarning taraqqiyot yo‘nalishlarini aniqlash va prognozlash muammolari.

Umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim tizimida tabiiy geografiyanı o‘qitish muammolari

Umumta’lim maktablarida tabiiy geografiyaning o‘qitilish holati, dars soatlari, o‘qituvchilar malakasi. Maktablarda tabiiy geografiya darslarida tabiiy geografik qonuniyatlarining o‘qitilish holati.

Kasb-hunar kollejlari va akademik letseylarda tabiiy geografiyaning o'qitilish muammolari, tabiiy geografik baholash va prognozlash masalalarining kam yoritilishi. Darsliklarning holati.

Oliy ta'lismida umumiylar va regional tabiiy geografiya

Oliy o'quv yurtlarida tabiiy geografiyaning o'qitilish xolati. Bakalavriat tizimida tabiiy geografik fanlar tarkibida bo'lgan iqlimshunoslik, biogeografiya, tuproqlar geografiyası, meliorativ geografiya, to'rtlamchi davr geologiyasi va geomorfologiyasi, paleogeografiya kabi fanlarning o'qitilish holati. O'qitiladigan fanlar turkumi, ularning jahon andozalariga moslashtirish muammolari.

O'quv predmetini tegishli darslik hamda qo'llanmalar bilan ta'minlash muammolari. O'zbek tilida o'quv adabiyotlarini tayyorlash.

Tabiiy geografiya va amaliyat

Tabiiy geografiyaning amaliy jihatlari. Amaliy (konstruktiv) geografiya. Tabiiy geografik va amaliy geografik rayonlashtirish, geotizimlarning resursi, ekologik va barqarorlik imkoniyatlarini aniqlash va baholash masalalari. Tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishda geografik bilimlarning ahamiyati. Tabiiy resurslarni baholashda geografik qonuniyatlarga amal qilish lozimligi. Ekologik muammolarni bartaraf etish va tabiiy muhitni optimallashtirishda geografik bilimlarning ahamiyati.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha tavsiya va ko'rsatmalar

Amaliy mashg'ulotlar talabalarning nazariy bilimlarini mustaxkamlash, kengaytirish va umumlashtirish, shuningdek bu bilimlarni amalda qo'llash bo'yicha ularda zarur ko'nikma va malaka hosil qilishga qaratilgan. Unda talabalar adabiyotlar bilan ishlash, turli modellar, sxemalar, jadvallar va kartalar tuzish, statistik ko'rsatkichlarni bevosita hisoblash, olingan natijalarni tahlil qilish kabi vazifalarni bajaradilar va shunga muvofiq baholanadilar.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Turli tabiiy geografik rayonlashtirish sxemalarini tahlil qilish asosida tabiiy geografik komplekslarning katta-kichikligini aniqlash.

2. Geografik qobiqning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini tavsiflash.

3. Tabiiy geografik komplekslarning modellarini tuzish.

4. Geografik qobiqdagi modda almashinishlar sxemalarini tuzish.

5. Tabiiy geografik rayonlashtirishning taksonomik birliklar jadvalini tuzish.

6. Xususiy rayonlashtirish ma'lumotlarini tahlil qilib tabiiy geografik komplekslarni aniqlash.

7. Landshaft kartalarini tahlil qilish asosida tabiiy geografik rayonlar va okruglarni ajratish.

8. O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish tajribalarini tahlil qilish.

9. Landshaft va ekosistema modellarini qiyoslash asosida o'xshashlik va farqlarini aniqlash.

10. Tabiiy geografik baholash maqsadida iqlim, relef va turoq ko'rsatkichlarini tavsiflash.

11. Umumiy va amaliy maqsadlar uchun rayonlashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish.

12. Tanlagan mavzular bo'yicha aloxida referat yozish va uni ma'ruza qilish.

Izoh: O'quv kursining ishchi dasturini tuzish jarayonida mazkur mavzular ro'yxatidan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soat hajmiga mos holda mavzular tanlab olinadi.

Mustaqil ta'lismi tashkil etishning shakli va mazmuni

Geografiyaning asosiy muammolari kursida mustaqil ta'lism auditoriyada o'qituvchi tomonidan o'tilgan har bir mavzu (ma'ruza va amaliy mashg'ulot mavzulari) talaba tomonidan darsdan tashqari vaqtida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan hamda internet ma'lumotlaridan foydalangan holda muntazam ravishda qayta ishlanib, to'ldirilib, kengaytirilib

borish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlari amaliy ishlarga singdirilgan holda joriy nazorat shaklida baholanadi.

Mustaqil ishni tayyorlashda “Geografiyaning asosiy muammolari” o‘quv kursining xususiyatlarini hisobga olgan holda talabaga quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- ✓ Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish;
- ✓ darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- ✓ tarqatma materiallardan foydalangan holda fanning ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- ✓ avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- ✓ maxsus adabiyotlardan foydalangan holda, fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- ✓ yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o‘rganish;
- ✓ fanning talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘limlarini va mavzularini chuqur o‘rganish;

✓ masofaviy (distansion) ta’limdan foydalanish va h.k.

O‘quv kursi bo‘yicha mustaqil ta’lim talabalarga oldindan berib qo‘yilgan mavzular bo‘yicha referat, xaritalar chizish va tahlil qilish, jadvallar to‘ldirish, qo‘sishimcha ma’lumotlar to‘plash orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil ish uchun quyidagi mavzularni chuqur o‘rganish tavsiya etiladi:

1. Geografiyaning rivojlanish bosqichlari.
2. Geografik qobiq, uning tarkibi va tuzilishi.
3. Iqlim va iqlim o‘zgarishi muammolari.
4. Tabiiy geografiyadagi asosiy g‘oya va tushunchalarning shakllanish va rivojlanish tarixi.
5. Tabiiy geografiyaning fanlar tizimidagi o‘rni va tarkibiy qismlari.
6. Umumiy tabiiy geografiyaning asosiy muammolari.
7. Regional tabiiy geografiyaga taaluqli muammolar.
8. Landshaftshunoslikning muammoli masalalari.
9. Inson-tabiat o‘zaro aloqadorligi masalalari.
10. Geografik qobiq, tabiiy geografik kompleks, geografik sistema, landshaft tushunchalarining tavsifi.
11. Geografik qobiqning chegaralari va tarkibiy tuzilishi.
12. Tabiiy geografik rayonlashtirishning taksonomik birliklar tizimi.
13. Tabiiy geografik rayonlashtirishda miqdor ko‘rsatkichlarining ahamiyati.
14. O’rta Osiyo va O’zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirish tajribalari.
15. Amaliy maqsadlarda rayonlashtirishning mohiyati.
16. Tabiiy geografik rayonlashtirish xillari.
17. Tabiiy geografiyada tizimli hamda ekologik yondashishlar.
18. Tabiiy geografiyada modellar (V.B.Sochava, V.S.Preobrajenskiy va boshq.)
19. Tabiiy geografik tabaqaqalanish qonuniyatları.

Izoh: O‘quv kursining ishchi dasturini tuzish jarayonida mazkur mavzular ro‘yxatidan mustaqil ish uchun ajratilgan soat hajmiga mos holda mavzular tanlab olinadi.

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Gvozdetskiy N.A. Osnovnye problemy fizicheskoy geografii. M.: Vysshaya shkola. 1979.
2. Zokirov Sh.S. Kichik hududlar tabiiy geografiyasi. T.: Universitet. 1999.
3. Nazarov I.Q. Geografiya fanining asosiy muammolari. T.: Muharrir. 2013.
4. Yurenkov G.I. Osnovnye problemy fizicheskoy geografii i landshaftovedeniya. M.: 1982 .
5. Soliyev A., Maxamadaliyev R. Iqtisodiy va sotsial geografiyaning asosiy muammolari. O‘quv qo‘llanma. -T., 2002.

6. Soliyev A., Qarshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. -T., 1999.
 7. Chistobayev A.I., Sharыгин M.D. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya. L., 1990
 8. Saushkin Yu.G. Ekonomicheskaya geografiya: teoriya, metody, praktika. -M., 1973.
- Qo'shimcha adabiyotlar:**
9. Armand D.L. Nauka o landshafte. M., 1975.
 10. Zabelin I.M. Fizicheskaya geografiya v sovremennoem yestestvoznanii. M., Prosvescheniye. 1979.
 11. Milkov F.N. Fizicheskaya geografiya: sovremennoye sostoyaniye, zakonomernosti, problemy. Voronej. 1981.
 12. Nikolayev V.A. Problemy regionalnogo landshaftovedeniya. M., Vysshaya shkola. 1979.
 13. Preobrajenskiy V.S. Besedy o sovremennoy fizicheskoy geografii. M., Nauka. 1972.
 14. Sochava V.B. Vvedeniye v ucheniye o geosistemax. Novosibirsk. 1978.
 15. Babushkin V.L., Mazurov Yu.L. Geograficheskiye osnovy upravleniya. -M., 2000.
 16. Baranskiy N.N. Izobrannye trudy. Stanovleniye ekonomicheskoy geografii. -M., 1980.
 17. Vitver I.A. Izobrannye sochineniya. -M.; MGU, 1998.
 18. Kolosovskiy N.N. Teoriya ekonomicheskogo rayonirovaniya. -M.: Mysl, 1969.
 19. Maksakovskiy V.P. Istoricheskaya geografiya mira. -M., 1999.
 20. Novye vzglyady na geograficheskoye obrazovaniye. Perevod s ang. -M.: Progress, 1986.
 21. Ro'ziyev A., Abirkulov Q. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi. -T., 2001.
 22. Saushkin Yu.G. Izobrannye trudy. – Smolensk, 2001.
 23. Soliyev A., Axmedov E., Maxamadaliyev R., Nazarov M. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. -T., 2003.
 24. Soliyev A., Mallaboyev T. Iqtisodiy va sotsial geografiyada ayrim qonuniyatlarini o'rGANISH metodikasi. - T., 1988.
 25. Soliyev A., Maxamadaliyev R. Iqtisodiy geografiya asoslari.-T.; O'zbekiston, 1996.
 26. "Geografiyaning asosiy muammolari" o'quv kursi bo'yicha tayyorlangan o'quv uslubiy majmua.

Internet saytlari:

27. O'zMU ichki tarmog'i.
28. www.undp.uz
29. www.Ziyo.net.

Buxoro davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrasi
o'qituvchisi Z.M.Anvarova tomonidan tuzilgan
“Tabiiy geografiyaning asosiy muammolari”
fani ishchi dasturiga
T A Q R I Z

Mamlakatimizda ta'lif-tarbiya tizimini tubdan isloq qilish, uni zamon talablar darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari davlat siyosatining ustivor yo'naliishiga aylandi. Respublikamizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi bilan ta'lif tizimi isloq qilina boshlashi buning yorqin misolidir. Ta'lifni isloq qilishning ikkinchi bosqichida zamon talablariga mos o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish ko'zda tutilgan.

“Tabiiy geografiyaning asosiy muammolari” fan dasturi o'quv rejasi va davlat ta'lif standartlari asosida tuzilgan. Dasturda tabiiy geografiyaning asosiy muammolari bilan bog'liq o'quv kursi ob'ekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi; XIX asrda yangi geografiyaning shakllanishi; XX asrning ikkinchi yarmida kompleks tabiiy geografiya va geografiyaning g'oyalarinining rivojlanishi; tabiiy geografiyaning fanlar tizimidagi o'mi va landshaftshunoslik g'oyalarinining rivojlanishi; tabiiy geografiyaning fanlar tizimidagi o'mi va qismi; geografik qobiqning chegaralari, tarkibiy tuzilishi va u bilan bog'liq muammolar; tabiiy geografik rayonlashtirish regional tabiiy geografiyaning metodologik masalalaridan biri; O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirishlar tajribalaridan; landshaftshunoslik yoki kichik hududlar tabiiy geografiyasining muammoli masalalari; geografiya va ekologiya: kichik hududlar tabiiy geografiyasining muammoli masalalari; inson-tabiat o'zaro muammolar va amaliyot; iqlim o'zgarishi va cho'llanish muammolari; inson-tabiat o'zaro aloqadorligi masalalari; geografik bashorat va amaliyot kabi ma'ruza va amaliy mashg'ulot mavzularini o'qitish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari ishchi dasturda fanga doir talabalarning mustaqil o'zlashtirishi kerak bo'lgan mavzular ro'yxati, baholash mezonlari hamda fanni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Umuman olganda katta o'qituvchi G.S.Halimova tomonidan tuzilgan “Tabiiy geografiyaning asosiy muammolari” fan davlat ta'lif standartlariga mos keladi va foydalanishga tavsiya etaman.

Taqrizchi:



Buxoro davlat universiteti
Ekologiya va geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.n.
X.R.Toshov